

**“O’SMIRLIK DAVRIGA XOS AGRESSIVLIKNI IJTIMOYIY – PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI” (MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI
MISOLIDA)**

Xamidova Fariza Shuxrat qizi

O’zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası

stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya: *Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.*

Kalit So’zlar: *Mehribonlik uyi, agressiya, yetimlik*

Annotation: *The future of our country, the next day of our people, and our country's reputation in the world depend primarily on what kind of person our children grow up to be and enter into life. We must never forget such a sharp fact.*

Key Words: *House of Mercy, aggression, orphanhood.*

АННОТАЦИЯ: *Будущее нашей страны, завтрашний день нашего народа, репутация нашей страны в мире зависят в первую очередь от того, какими людьми вырастут и войдут в жизнь наши дети. Мы никогда не должны забывать такой острый факт.*

Ключевые Слова: *Дом милосердия, агрессия, сиротство.*

KIRISH

Yetimlik, ijtimoiy holat sifatida bashariyat qancha vaqtdan buyon mavjud bo’lsa, shuncha vaqtdan buyon mavjud bo’lib, sivilizatsiyaning ajratib bo’lmas elementidir. Ma’lumki, yetim va qarovsiz bolalar oiladagi bolalardan keskin farq qiladi. Tarbiyalanuvchilar xarakter hislatlaridagi agressivlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – onalik mehriга zorlik, ota-onalar tarbiyasiga muhtojlikdir.

Angliyalik psixolog olim R.Bernis onalik mehriга tashnalikni tahlil qila turib, shunday deb yozadi: salbiy dalilsiz “Men konsepsiyasi”ning rivojlanishi va hissiz tajavuzkorlik bolaning ota-onasiga va onalik rolini bajaruvchi kishiga nisbatan qo`polligi natijasidir¹⁰. Bolada hech kimga qo`shilmaslik, odamovilik, tundlik hissi paydo bo`la boshlaydi. Bular esa salbiy “Men konsepsiya”sini keltirib chiqaradi.

Tajavuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, aniq bir to`xtamga kela olmaslik kabilar, tarbiyalanuvchi o`smirlarda keyinchalik doimiy

¹⁰ *Bernis R., Grundy L., Clements P. The Feminist Companion to Literature in English (аhгл.): Women Writers from the Middle Ages to the Present — 1990. — P. 929.*

salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi. Psixolog olimlardan V.S.Rotenberg va S.M.Bondarenko o'z konsepsiyalarini ishlab chiqdilar. "Qidiruv faolligi" deb atalgan bu konsepsiya mualliflarining ta'kidlashicha agar qidiruv faolligini yo'nalishi o'zgartirilsa tajavuzkorlikni yo'qotish mumkin bo'ladi. O'z o'rnida bu olimlar nemis psixoterapevti G.Ammon konsepsiyasiga yaqinlashadi. G.Ammon har bir odam tajavuzkorlik bilan tug'ilishini, normal rivojlanish natijasida asta-sekinlik bilan ijodiy garmonik rivojlanishga o'tadi¹¹.

Bolalar uyi va maktab internatdagi tarbiyalanuvchilarda shaxs hislatlarining shakllanishi va bir qancha ruhiy holatlariga taaluqli muammolar bilan ham keng shug'ullanishgan, xususan avstriyalik olim A.Adler qarovsiz bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlikni o'rganib chiqib, ba'zi bir olimlar fikrini inkor qiladi. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlari, shaxs hislatlari yo'nalishi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, qayta tarbiyalashga erishish mumkinligini aytib o'tadi.

Oilasidagi o'z yaqinlaridan ajralib qolish oqibatida bolada salbiy hissiyotlarning rivojlanishi omillarini o'rganib chiqqan olim A.Freyd o'z ilmiy izlanishlarida bolani onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bola ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Oilada o'z onasini eslay oladigan bolalar onasini tez-tez qo'msab turadi, uzoq vaqt davomida uchrashmaslik esa salbiy hissiyotlarning namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Amerikalik psixolog R.A.Shipits bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo'llaniladigan jazolashni qat'iyan qoralaydi. Bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybdorlar jazo yarasini unutmaydilar, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik hissi paydo bo'ladi. Izquvarlik qilish ham yaramaydi. Buning o'rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama etish yaxshi natija beradi. Birinchi navbatda intizom buzilishining sababini o'rganish kerakligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ishonch va aralashish intizom buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, jazolash voqea sodir etilgandan so'ng qo'llaniladi. Jazolash vaqtida bolalar, shu tarbiyachi intizom tiklashini va shu yerda tartib o'rnata olishini bilishi kerak.

Intizomga taaluqli masalalardan biri, bu tarbiyachining shaxsiy xarakteristikasidir. Bu masala yuzasidan K.F.Tanuliya, K.R.Torenburg, V.Vasmund va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Bu masalani ikkinchi tomoni tarbiyachi ish faoliyatini shakllantirilishidir. Tarbiyachi o'z xatti-harakatini doimo nazorat qilishi lozimligini ko'plab olimlar ta'kidlashadi. Bu esa o'z navbatida tarbiyachini ob'ektivlikka olib keladi.

Yana bir amerikalik psixolog A.Yu.Marokko¹² qarovchisini yo'qotgan bolalar, ularning ruhiy rivojlanish yo'llari haqida fikr yuritib, ilmiy tadqiqot ishlari olib

¹¹ Гюнтер Аммон. Психосоматическая терапия. - СПб.: Изд-во «Речь», 2000 - 238 стр.

¹² А.Ю.Магокко. Психолог в общеобразовательной негосударственной школе (часть 2, разд. 2, гл. 4) // Психологическая служба в современном образовании.- СПб.: Питер. 2009. С. 248-265

borgan. Bolalar yashash sharoitini yaxshilash Amerika ligasi(ALBD)da ijtimoiy moslashtirish, ularga yordam berish ustida ishlashning bir qancha usullari ko`rsatib o`tilgan. O`smir o`zini katta bo`lganini his etib, unga yosh boladek munosabat bildirishlariga qarshi tajavuzkorlikni turli xil usullarda namoyon etadi. ALBD tizimida ish olib borayotgan amerikalik psixologlar bir qancha ijtimoiy-psixologik usul va yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqqanlar. Tarbiyachilarning vazifasi esa ana shu usullarni voqelikka olib chiqishga yordamlashishdan iborat.

Jon Boulbi fikricha, o`smirlik va ilk o`spirinlik yosh davrlarida mehribonlik uylari sharoitida sevgi-muhabbat to`g`risidagi tasavvurlarning o`ta torligi, buzib idrok qilinishi qaltis jinsiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Ota-onaning mehr-muhabbatidan, maslahatidan mahrum bo`lishlik nazokatli harakatlarni qo`llashga imkon bermaydi. Bu ruhiy holat o`z-o`zidan bolada jismoniy, aqliy hamda emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi. Deprivatsiya ushbu holatning asosiy sababchisi sifatida namoyon bo`ladi.

Chexiyalik tadqiqotchilar I.Langieyer va Z.Mateyчек¹³ fikricha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari psixik taraqqiyotining quyidagi sohalari bilan bog`liq muammolar ko`zga tashlanadi.

1. Intellektual rivojlanishidagi muammolar:

➤ ko`p hollarda aqliy taraqqiyotning susayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ular hatto oldilarida turgan muammoga doir mustaqil qaror qabul qila olmaydilar. Ularga namuna asosida ish olib borish qulayroq;

➤ yangilikka bo`lgan qiziqish, yorqin hayotiy misollar va hatto g`ayritabiiy holatlar kabi primitiv shakllarda ham ehtiyojlarning anglanishi haddan tashqari kuchsiz aks etadi. Bu yerda voyaga yetmaganlarning axloq tuzatish koloniyalari tarbiyalanuvchilarini ham misol keltirish mumkin. Lekin, ularda motivasiya sust aks etishiga qaramay, hayotga bo`lgan bevosita qiziqish juda yorqin nomoyon bo`ladi;

➤ tarbiyalanuvchilar normal darajadagi intellekt imkoniyatlaridan na o`qishda va na hayotiy faoliyatlarida to`liq foydalanadilar. Bu bolalarning ma`lum darajada motivasiya hamda to`la qonli jamiyatdan uzilib qolganligi bilan izohlanadi. Buni "intellektual sustlik" deb atash mumkin.

2. Ehtiyoj – motivasiya jabhasining rivojlanishi bilan bog`liq muammolar:

➤ internat maktablarida tarbiyalanuvchilarda bevosita kundalik hayoti, kun tartibi me`yorlari, xatti-harakat qoidalariga amal qilinishiga bog`liq hoxishlarini ustun qo`yish yorqin nomoyon bo`ladi. Bu vaqtda esa oddiy maktablarda o`qiydigan tengdoshlarini kundalik hayoti bilan bir qatorda shaxsiy tajriba qoliplaridan ancha yiroqdagi butun bashariyat muammolari ham o`ylantiradi;

¹³I.Langieyer va Z.Mateyчек. Психология сиротства. (текст). Изд.3-е. – СПб.: Питер, 2007. – 416 с.: ил.

➤ mehribonlik uylari va internat bolalariga qaraganda “uy” bolalarining bugungi kun yoki yaqin kelajak bilan bogʻliq boʻlgan motivlari ustunlik qiladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ertangi kun yoki vaqt oʻtishini deyarli idrok qilmaydilar va bugungi kun bilan yashash anʼanasini maʼqul koʻradilar.

3. “MEN” konsepsiyasi rivojlanishi muammolari:

➤ mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yaxshi ijtimoiylashgan boʻlib, vaziyatni oʻz manfaatlarini tomoniga ogʻdira olish qobiliyati bor degan notoʻgʻri qarash mavjud. Ammo amalda unday emas. Ular yetarli darajadainfantal boʻlib, oliada tarbiyalangan bolalarga qaraganda atrofdagilarning bahosi va xatti-harakati, xulq-atvoriga toʻbelik yuqori boʻladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchlari “uy” bolalaridan farqli ravishda mustaqillikka intilishlarini ochiq nomoyon etadi, tahdid va nazoratlarga qarshi chiqadi hamda oʻz-oʻzini nazorat qilish zaruratini tan oladilar;

➤ mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga qaraganda oliada tarbiyalangan bolalarning oʻz-oʻzini baholashi ancha ijobiy boʻlib, biroz murakkabroq xarakterga ega. Oliada tarbiyalangan bola oʻzining salbiy xislatlariga qarshi kurashishi mumkin, ammo shu bilan bir qatorda oʻzini yaxshi koʻradi. Mehribonlik uyida tarbiyalangan bolaning esa oʻziga munosabati bir yoqlamadir;

➤ mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida koʻpincha muvaffaqiyat diskomforti kuzatiladi. Bu inson uchun oʻziga nisbatan munosabatning salbiy boʻlishiga qaramasdan oʻzi haqidagi nomaʼlum, chalkash tasavvur hamda identifikatsiyadan koʻra odatlanganini saqlab qolishni muhimligi bilan izohlanadi;

➤ “BIZ” tuygʻusining rivojlanishi, boshqalar fikridan kelib chiqib oʻz-oʻzini baholashga orientatsiya.

4. Gender identifikatsiya rivojlanishi bilan boʻgʻliq muammolar:

➤ qashshoqlik, sxemalashgan hayot tarzi asosida salbiy maskulizm – feminizm etaloni hosil boʻladi;

➤ koʻp hollarda mehribonlik uyida tarbiyalangan bolalar shaxsiy oilalarini qurishda murakkabliklarga duch keladilar, ota-ona va er-xotinlik munosabatlaridagi muammolarga qiyinchilik bilan yechim topadilar;

➤ jinnga xos xulq-atvorning shakllanishida muammolar kuzatiladi: tarbiyachilar buni oldini olish maqsadida tikish, toʻqish kabi ayollar mashgʻulotlari bilan shugʻullantiradilar;

➤ jinsiy qiziqishlarning shakllanishidagi muammolar;

➤ javobgarlik, masʼuliyat hissi boʻlajak oila va onalik toʻgrisidagi tasavvurlarning kam qismini egallaydi.

5. Kattalar va qarindoshlar bilan munosabatlardagi muammolar:

➤ insonlarga nisbatan shubha;

- kattalar va qarindosh-urug'lariga, hatto, tug'ishgan aka-uka, opa-singillariga nisbatan ham emosional aloqa o'rnatish to'la qonli shakllanmaydi;
- mehr-muhabbatga bo'lgan ehtiyojning qondirilmaganligi ko'pincha agressiyani paydo qiladi;
- ko'p hollarda kattalarga nisbatan boqimandalik paydo bo'ladi.

Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oila muhitida o'smagan bola alohida yo'ldan yuradi va unda yaxshi yoki yomon deb baholab bo'lmaydigan xarakter, xulq-atvor va shaxslilikning shunchaki boshqacha, o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi.

XULOSA

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi bolalarning psixologik, ijtimoiy rivojlanishlari haqida o'zbek psixolog olimlari fikrlari hamda chet el psixolog olimlarning ota-ona qarovisiz qolgan bolalar psixosotsial rivojlanishi haqidagi qarashlarini ko'rib chiqdik. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishining umumiy qonuniyatlari hamda rivojlanishidagi o'ziga hosliklarga alohida to'xtalib o'tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi qonuni. 23-noyabr 2007-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
2. O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik" to'g'risidagi qonuni 02.01.2014 yil
3. O'zbekiston Respublikasi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi" to'g'risidagi qonuni 29.09.2010 yil
4. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari" to'g'risidagi qonuni 07.01.2008 yil
5. "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 09.08.2021 yildagi PQ-5216-son
6. "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risida 09.08.2021 yildagi PQ -5215-son